

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “HAYOTDAN NAF UNDIRGAN...” SHE’RIDA HAYOT MA’NOSI VA INSONIY KECHINMALAR TALQINI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynber XX asr o‘zbek va rus adabiyotida o‘ziga xos poetik ovozi bilan ajralib turgan va keng kitobxonlar ommasi diqqat markazida bo‘lgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning she‘riyatida inson ruhiyati, hayot falsafasi va ma‘naviy kamolot singari teran mavzular yoritilgan asarlar talaygina. Shoir asarlarida inson qalbidan o‘tkazayotgan turli kechinmalar, uning hayot yo‘ida duch kelgan sinovlari va ruhiy tajribasini badiiy-falsafiy ruhda yoritib beradi. Faynberg asarlari hayotning faqat shodlik-u quvonchdan iborat emasligi, inson vaqti-vaqti bilan yuzlashadigan iztirob va sinovlar uni shaxsiy yetuklik cho‘qqisiga olib chiquvchi muhim omil ekanligi to‘g‘risida ham so‘z boradi. Shoir ko‘pincha hayotiy haqiqatlarni sodda, biroq chuqur ma‘noga ega bo‘lgan obrazlar vositasida tasvirlaydi. Uning lirikasidagi kamtarlik, fidoyilik, saxovat kabi insoniy fazilatlar yuksak qadriyat sifatida ulug‘lanadi. Shu bilan bir qatorda, moddiy yutuqlar ortidan ergashib, hayot ma‘nosini esidan chiqardan shaxsga tanqidiy nuqtai nazardan baho beriladi. Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg ijodidagi hayot ma‘nosi va insoniy kechinmalar “Hayotdan naf undirgan...” misralari bilan boshlanuvchi she‘ri misolida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: hayot falsafasi, insoniy fazilatlar, dard va iztirob, muhabbat, saxovat, fidoyilik, kamtarlik, poetik obraz, ma‘naviy kamolot, lirik qahramon, hayot ma‘nosi, badiiy tafakkur, ruhiy kechinmalar, falsafiy lirika.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinber is one of the creators of 20th-century Uzbek and Russian literature, distinguished by his unique poetic voice and in the center of attention of a wide readership. His poetry contains many works that cover such deep topics as the human psyche, philosophy of life, and spiritual maturity. The poet's works illuminate the various experiences that a person goes through, the trials he encounters on his life path, and his spiritual experience in an artistic and philosophical spirit. Feinberg's works also talk about the fact that life is not only about joy and happiness, and that the suffering and trials that a person faces from time to time are an important factor that leads him to the peak of personal maturity. The poet often describes the realities of life through simple but deeply meaningful images. In his lyrics, such human qualities as humility, selflessness, and generosity are glorified as high values. Along with this, material achievements A person who follows and forgets the meaning of life is critically evaluated. This article examines the meaning of life and human experiences in the work of Alexander Feinberg using the example of his poem, which begins with the lines "Hayotdan naf undirgan...".

Keywords: philosophy of life, human qualities, pain and suffering, love, generosity, selflessness, humility, poetic image, spiritual maturity, lyrical hero, meaning of life, artistic thought, spiritual experiences, philosophical lyrics.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — один из творцов узбекской и русской литературы XX века, отличающийся уникальным поэтическим голосом и находящийся в центре внимания широкой читательской аудитории. Его поэзия включает множество произведений, затрагивающих такие глубокие темы, как человеческая психика, философия жизни и духовная зрелость. Произведения поэта освещают различные переживания человека, испытания, с которыми он сталкивается на жизненном пути, и его духовный опыт в художественно-философском духе. В произведениях Файнберга также говорится о том, что жизнь — это не только радость и счастье, и что страдания и испытания, с которыми человек время от времени сталкивается, являются важным фактором, ведущим его к вершине личностной зрелости. Поэт часто описывает реалии жизни с помощью простых, но

глубоко значимых образов. В его лирике прославляются такие человеческие качества, как смирение, бескорыстие и щедрость, как высокие ценности. Наряду с этим, критически оценивается человек, который следует за смыслом жизни и забывает о нем. В данной статье рассматривается смысл жизни и человеческий опыт в творчестве Александра Файнберга на примере его стихотворения, начинающегося со строк «Hayotdan naf undirgan...».

Ключевые слова: философия жизни, человеческие качества, боль и страдание, любовь, щедрость, самоотверженность, смирение, поэтический образ, духовная зрелость, лирический герой, смысл жизни, художественная мысль, духовные переживания, философская лирика.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Hayotdan naf undirgan...” satrlari bilan boshlanuvchi she’ri inson hayotining ma’nosi, ruhiy tajriba va iztiroblarning ahamiyati haqidagi falsafiy mulohazalarni o’zida jamlagan. Unda shoir hayotni chuqur his etgan, dard va g’amni anglamagan insonning ma’naviy jihatdan nochorligini ko’rsatadi. Aksincha, iztirob va muhabbatni boshdan kechirgan insongina hayotning haqiqiy ma’nosini anglay olishini ta’kidlab o’tadi.

She’rning dastlabki misralarida ijodkor hayotdan faqat naf ko’rishga intilgan, moddiy yutuqlar ortidan quvgan inson obraziga ta’rif beradi:

Hayotdan naf undirgan,

ko‘p olgan keragidan –

Yutuq, omadning quli

bo‘lganga rahmim kelar.

Bu o’rinda shoir insonni faqatgina muvaffaqiyat va manfaat uchun harakatini tanqid qiladi. “Omadning quli” iborasi insonning moddiy yutuqlarga kuchli qaram bo’lib qolishini ko’rsatib beruvchi ajoyib badiiy metafora sanaladi. Faynberg bunday hayot ma’noga ega emas, u ma’naviy jihatdan sayoz degan fikrni ilgari suradi.

Keyingi badda esa shoir inson yuragi dard va iztiroblarga beparpo ekanligini yanada keskinroq ohangda baholaydi:

Dard-u g‘am, jarohatni
his etmay yuragidan,
So‘qir va nodon bo‘lib
o‘lganga rahmim kelar.

Bu yerda “so‘qir” va “nodon” obrazlari ramziy ma‘noni ifodalash uchun xizmat qilgan bo‘lib, hayotning chuqur ma‘no mazmunini idrok etishga ulgurmagan insonni ifodalaydi. Ijodkor nazarida inson qalbi dardni, iztirobni his qilmasa, u ruhiy jihatdan ko‘r va ma‘naviy jihatdan kambag‘al bo‘lib qoladi.

She‘rning navbatdagi qatorlarida Faynberg chinakam insoniy fazilatlarga bo‘lgan ehtiromini bildiradi:

Saxiy, fidoyi, kamtar
Yurakka ish munosib.

So‘nggi to‘rtlikda esa inson hayotidagi iztiroblarning ma‘naviy ahamiyati yanada chuqurroq ochiq lanadi:

Sevgan, g‘am-alam chekkan
odamga bo‘lgay nasib
Yulduz olovi bilan
bitilgan so‘zni o‘qish.

“Yulduz olovi bilan bitilgan so‘z” iborasi juda kuchli poetik obraz hisoblanadi. Bu o‘rinda shoir ilhom, haqiqat yoki hayotning oliy ma‘nosini timsollar vositasida ochib

beradi. Shoirning fikriga qaraganda, bunday haqiqatni faqat sevgan, iztirob chekkan va hayot sinovlarini boshdan kechirganlarga anglay oladilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg ushbu she'rida inson hayotining falsafiy mazmunini yorqin ochib bera olgan. Shoir unda inson hayoti faqatgina moddiy yutuqlarga erishish jarayoni bilan cheklanib qolmagani va hayotni bunday topilmalar bilan baholashning imkoni yo'qligini ta'kidlaydi. Dard, iztirob, muhabbat va fidoyilik insonni ma'naviy jihatdan mukammallashtirishi aytiladi. Shu jihatdan mazkur she'r Faynberg lirikasining insonparvarlik, falsafiy mushohada va ruhiy chuqurlik kabi muhim xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she'riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to'plami.
2. Faynberg A. Uchrashuv. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2020.
3. Qosimov B. Zamonaviy o'zbek lirikasida falsafiy yo'nalishlar. — Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
4. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.